

PROFESSIONAL TA'LIMDA AMALIYOT JARAYONLARINI TASHKIL ETISH TALABLARI.

Salimov Babajanboy

“Xalq ta'limi a'lochisi”, “O'zbekiston Respublikasi o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi a'lochisi”, Xiva pedagogika kolleji amaliyot o'qituvchisi

Kalit so'zlar: *professional, tarbiyachi, tashkilot, pedagog, amaliyotchi, innovatsiya, kompetensiya, ishchi dastur, indikator, ko'nikma, malaka, ma'naviyat, davlat talabi, kasbiy mahorat, bilim, tahlil, kuzatish, baholash.*

“Professional ta'lim muassasalarida o'quv va ishlab chiqarish (diplom oldi, pedagogik) amaliyotlaridan ishchi dasturni ishlab chiqish bo'yicha uslubiy tavsiyalar” Pedagogik innovatsiyalar, kasb-hunar ta'limi boshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutining ilmiy-pedagogik Kengashning 2021 yil 27 fevraldagi 2-sonli majlis bayono bilan ma'qullangan. Bunga ko'ra har bir amaliyot bo'yicha o'qub dasturiga muvofiq kalendar tematik rejadani oldin ishchi dasturi ishlab chiqish lozim. Ishchi dasturni ishlab chiqishdan maqsad namunaviy o'quv dasturidagi amaliyot soatlariga karrali holda ishlab chiqish, korxona-tashkilot ish rejasiga moslash uchun namunaviy o'quv dasturidagi soatlarni 30 % gacha o'zgartirish mumkin, mavzular bo'yicha o'quvchilarda shakllanishi lozim bo'lgan kompetensiyalar, amaliyot natijalarini belgilash, amaliyot natijalarini baholash usullari va indikatorlarini amaliyot mavzulari bo'yicha qo'llash talab qilinadi.

Pedagogik amaliyot -o'quvchilarda kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlash, ularni qo'llash uslublari bilan tanishtirish, kasbiy mahorat va malakalarini shakllantirish va o'stirishdan iboratdir. buning natijasida o'quvchilar quyidagilarga erishadi:

“Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari”, “Ilk qadam” davlat o'quv dasturida berilgan vazifalar asosida turli yosh guruhlarida kun tartibini tashkil etishni kuzatadi va birgalikda o'tkazadi.

“Bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim” asosida ish olib boradi, nazariy bilimlarini maktabgacha ta'lim tashkilotlari ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llaydi, ilg'or tarbiyachilarning tajribalariga bog'laydi, tahlil qiladi, amaliyot jarayonini didaktik tamoyillar asosida tashkil etadi, sanitariya-gigiyena meyorlari talablariga rioya qiladi, MTT jarayoni va oila muhitini o'rganish va uni tahlil qiladi, kasbiy bilim, ko'nikmalarni kengaytiradi, amaliyotda qo'llaydi, mustahkamlaydi.

Bo'lajak tarbiyachilardan quyidagilarni bilish talab qilinadi: “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari”ni, “Ilk qadam” Davlat o'quv dasturi asosida sohalar bo'yicha rejalashtiriladigan ishlar mazmunini, mashg'ulotlarni rejalashtirish va tanlashni, “MTTda bolalarning hayoti va sog'ligini muhofaza qilishni tashkil etish tartibi to'g'risidagi Nizom”ni, bolalarga beriladigan ovqatlar rese'ti va tayyorlash texnologiyasini, turli yosh guruhlarida ta'lim-tarbiyaviy jarayonni tashkil etish mazmunini,

rivojlanish xaritasini yuritishni, yakka ishlash yo'llarini, kun tartibini o'tkazishni, turli yosh guruhlarda bir kunlik ish rejasini mazmunini bilishi, mashg'ulot o'tkazishda tarbiyachiga yordamlashish, "Ilk qadam" davlat o'quv dasturidan va ta'limiy jarayonni rejalashtirishdan

foydalanish, ish rejasi bo'yicha kun tartibini tashkil etishda tarbiyachiga ko'maklashish, ta'lim-tarbiya jarayonida ta'lim berish vositasi sifatida o'yin turlaridan foydalanish, guruh xonalari, maydonchada sanitariya-gugiyena meyorlari talablariga rioya qilish, o'yinchoqlar va jihozlarni toza saqlash, birgalikda tadbirlarga tayyorlanish, ssenariylar tuzish, musobaqalar tashkil etish, bolalar bilan ishlash, ota-onalar bilan ishlashni mustaqil bajara olish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

Pedagogik amaliyot rahbarlariga quyidagi talablar qo'yiladi: Amaliyotga jalb etilgan o'quvchilarga yo'riqnoma berish, Amaliyotchilarni ish joyiga MTTga joylashtirish va ularning 'edagogik faoliyatiga metodik rahbarlik qilish va nazoratini olib borish; Yo'l xarakati va mehnat xavfsizligi haqida tushuntirish ishlarini olib boorish, Amaliyotchining bolalar bilan tashkil qilgan ishlarini kuzatadi, ishini tahlil qiladi, tarbiyachi va uslubchi bilan kelishgan holda baholaydi; Amaliyotchilarning kundalik daftarlarini nazoratini olib borish; O'quv jurnallarini talab darajasida yuritish va o'quvchilarni baholash;

Kollej o'quvchisi – Tarbiyachilik yo'nalishida amaliyotchilarga qo'yiladigan talablar

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ichki tartib qoidalariga rioya qilish va rahbariyatning barcha ko'rsatmalarini bajarishi, Xavfsizlik texnikasi va mehnat muhofazasi qoidalariga rioya qilishi; Intizomlikda va mehnatsevarlikda, hushmuomalalikda boshqalarga namuna bo'lish; pedagogik amaliyot dasturiga oid barcha ishlarni bajarish; Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan ta'limiy - tarbiyaviy ishlarni olib borishda jiddiy tayyorgarlik ko'rish;

Mashg'ulotlarga ishlanma tuzib maxsus fan o'qituvchisi, MTT uslubchisi, tarbiyachiga ko'rsatib, tasdiqlatib mashg'ulotlarni o'tkazish;

pedagogik amaliyot jadvaliga tegishli hamma mashg'ulotlarda ishtirok etish, ularning muhokamasida faol qatnashish, qabul qilingan qoidalariga ko'ra ish hujjatlarini yuritish. Kollej o'quvchi –yordamchi tarbiyachi yo'nalishida amaliyotchilarga qo'yiladigan talablar Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ichki tartib qoidalariga rioya qilish va rahbariyatning barcha ko'rsatmalarini bajarishi, Havfsizlik texnikasi va mehnat muhofazasi qoidalariga rioya qilishi; Intizomlikda va mehnatsevarlikda, hushmuomalalikda boshqalarga namuna bo'lish; 'edagogik amaliyot dasturiga oid barcha ishlarni bajarish; Kun tartibini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish;

Pedagogik amaliyot jadvaliga tegishli hamma mashg'ulotlarda ishtirok etish, ularning muhokamasida faol qatnashish, qabul qilingan qoidalariga ko'ra ish hujjatlarini yuritish. O'quv dasturini o'zlashtirish darajasini nazorat qilish va baholash amaliyot ranbari tomonidan joriy nazoratda amaliyot jarayonida – amaliyotchilardan savol so'rash orqali, qo'l mehnatlarini va ko'rgazmali qurollarni yasash va amaliyotchilar tomonidan kun tartibi, mashg'ulotlarni o'tish, rivojlanish markazlarida ishlash, yakka ishlash, tadbirlardagi ishtiroki, xulqi, ota-onalar bilan muomalasi vaqtlarida bajarilgan ishlarni baholash orqali

amalgam oshiriladi. Oraliq nazoratlarda testlar, ochiq mashg'ulotlar, musobaqalar, ko'rgazmalar tayyorlash natijalari orqali baholanadi. Ish xujjatlari, kundalik kuzatuv daftarlari inobatga olinadi. Amaliyot 'rofessional ta'limda asosiy ta'lim dastirining majburiy bo'lagi hisoblanadi. Amaliyotlar o'quv yoki o'quv -ishlab chiqarish mashg'ulotlar ko'rinishida bo'lib, talabalarning kasbiy-amaliy tayyorgarligiga bevosita yo'naltirilgan bo'ladi. Pedagogik amaliyot-talabalar dastlabgi pedagogik faoliyat tasavvurlarni, bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga qaratiladi. Amaliyot davomida talabalar tajribali pedagoglarning rahbarligida ularning faoliyatlarini kuzatish tajribalarini o'zlashtirish, ish faoliyati hujjatini tuzish va ulardan foydalashish malakalarini hosil qilishga yo'naltiriladi, Belgilangan muddat davomida talabalar passiv kuzatish bosqichidan faol pedagogik faoliyatga o'tadilar. Bu jarayon talabalarning ishlariga individual rahbarlikni tashkil etish ustoz-shogird an'anasiga ko'ra amaliy ko'nikmalarni agallashga mo'ljallangan.

Pedagogik amaliyotda :

-talabalar maktabgacha ta'lim tashkiloti, o'rta umumiy ta'lim maktabi, akademik litsey, kollejlarda, kasb maktablarida pedagogik amaliyotni o'tay olishi kerak;

-amaliyot jarayoni kasbiy ko'nikma, malakalarni shakllantirish, nazariy bilimlarini qo'llay olish, va ularni o'zlashtirishga imkom yaratish, talabalarni pedagogik faoliyatga moslashtirishdan iborat.

Bundan tashqari pedagogik amaliyot uslubiy-metodik va tashkiliy- uslubiy hamda tarbiyaviy faoliyat turlarini, ham qamrab oladi. Amaliyot yakunida talabalar muassasa bilan hamkorlikda hisobot taqdimotlarini o'tkazadilar. Amaliyot jarayoni hisobotlarini to'shiradilar.

Pedagogik amaliyotchi talabalar uchun eslatma:

Ta'lim-tarbiya amaliyotini o'tayotgan amaliyotchi-talaba pedagogik amaliyot davrida tashkilot direktori, pedagogik amaliyot rahbari, uslubchi va tarbiyachining buyruqlariga hamda tashkilotning ichki tartib qoidalariga qat'iy rioya qiladi. Shaxsiy rejada ko'rsatilgan ish turlarini bajarish, har bir guruh uchun belgilangan faoliyatga va guruhdan tashqari tadbirlarga 'uxta tayyorlanish, shuningdek, ota-onalar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-pedagogik bilimlarni ommaviy targ'ib qilishda faol ishtirok etish har bir amaliyotchi-talaba uchun majburiydir. pedagogik amaliyot davrida talaba o'z shaxsiy rejasida belgilanganidek;

a. Amaliyotning birinchi haftasida maktabgacha ta'lim tashkilotlari maydonchalari, xonalari, jihozlanishi, ish uslublari bilan, guruhlariga bo'linish, sog'lom avlodni tarbiyalash uchun yaratilgan shartsharoitlar bilan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kun tartibini tashkil etilishini o'ziga hos xususiyatlari, tarbiyachining amaldagi ish xujjatlari bilan tanishadilar

b. Tarbiyachilarning faoliyat jarayonlarini kuzatadilar va tahlil qiladilar

c. O'zi kabi amaliyotchi-o'quvchining faoliyat tashkil qilish jarayonini kuzatadilar

d. Berkutilgan guruhdagi bolalarning yosh va xarakter xususiyatlarini o'rganadi

e. Rejalashtirgan tadbirlarni mustaqil o'tkazadi

f. Bolalar bilan yakka ishlash jarayonlarini mustaqil tashkil qiladi

g. Oy mavzulariga mos ko'rgazmali qurollar, tarqatmali materiallar ishlab chiqadi, ertalabgu qabulni mustaqil tashkil qiladi.

Amaliyotchi-talaba tarbiyachilarning ilg'or tajribalarini o'rganadi, tashkilotning metodik ishlar uyushmasida faollik ko'rsatadi, ilg'or ta'lim texnologiyalarini o'rganadi. Talaba pedagogik amaliyot jarayonida bajarilayotgan ishlarni o'zida aks ettiruvchi kundalik daftari izchil va muntazam yurgizadi, vaqti-vaqti bilan qilingan ishlar haqida guruh rahbari, uslubiyotchilarga axborot berib boradi. Amaliyotchi-talaba har kuni tashkilotda 6 soatdan kam bo'lmasligi, shu vaqt ichida ta'lim va tarbiya ishlarini bajarishi lozim. Pedagogik amaliyot jarayonidagi faoliyati "qoniqarsiz" deb to'ilgan talaba kursdan kursga ko'chirilmaydi va Davlat Attestatsiya Komissiyasi imtihoniga qo'yilmaydi. Pedagogik amaliyot davrida shu tashkilotda pedagogik amaliyot o'tayotgan talabalardan biri guruhga boshliq (sardor) qilib tayinlanadi. Uning vazifasi: amaliyotchi talabalarning amaliyotga qatnashini, davomatini hisobga olish, ularga jamoa bo'lib uslubiy-tadrijiy suhbatlar uyushtirish va ular bilan o'tkaziladigan uslubiy seminarlar haqidagi xabarlarni yetkazish, amaliyot rahbarining, metodistning to'shiriqlarini talabalarga yetkazish va bajarishdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 24.09.2020 yil.
2. "Professional ta'lim muassasalarida o'quv va ishlab chiqarish (diplom oldi, pedagogik) amaliyotlaridan ishchi dasturni ishlab chiqish bo'yicha uslubiy tavsiyalar" 27.02.2021 yil
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta Maxsus Ta'lim Vazirligi
"Pedagogik amaliyot" o'quv dasturi 2022 yil